

**Eng yaxshi suhbatdosh**

Termiz davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (Fransuz tili)

1-bosqich talabasi

**Masharibova Umida Murodbek qizi**

Kitob hayotning eng olis va qorong'u yo'llariga nur baxsh etgan afsonaviy chiroqdir. Bir insonning qiymati o'qigan kitoblari bilan o'lchanadi. Kitob odamlarning yo'lini yoritib turuvchi mayoqdir.

Inson kitobga mehr qo'yar ekan undan oladigan ilmlarini sanog'iga yetmaydi. Eng yaxshi suhbatdosh yaqin do'st kitob hisoblanadi. Berilib o'qir ekansiz asar qahramonlari bilan birgalikda yashaysiz va voqea hodisalarni ko'z oldingizda namoyon qilasiz. Qahramonlar his qilayotganlarni birgalikda his qilasiz. Demak kitob o'qish orqali ongimizni rivojlantirib yaratuvchanlik qobiliyatimizni ham shakllantirib boramiz. Hozirgi kunda kitob bizga to'g'ri yo'lni ko'rsatib yaxshi va yomonni farqlay olishimizga yordam berayotgan muallim desak mubolag'a bo'lmaydi. Hayotimiz davomida insonlar bilan muloqot qilishda fikr almashishda dunyo qarashimizni kengaytirishda va omma oldida o'z fikrlarimizni jamlab erkin gapira olish uchun ham ko'proq kitob o'qib unga mehr qo'yishimiz lozim. O'zingizni yengish uchun emas o'sish uchun o'qi deyilgan. Kuniga 15 betdan kitob o'qigan inson o'sha kuni yashagan odam bo'ladi. Miqdor emas davomiylik muhim. Kitobni soni uchun emas undan nimadir olish maqsadida o'qish kerak. Hozirda kitobxonlik rivojlantirish uchun ko'plab tadbirlar va marafonlar o'tkazilmoqda. Eng katta loyihalardan biri "Yosh kitobxon" kabi loyihalardan unumli foydalanib davomiy kitob o'qishga erishsak yuksalamiz va jamiyatga foydamiz tegadi. Bugungi davr insonlarini 2 qismga bo'lsak. 1 qism insonlari kitob o'qib o'zini ustida ishlab rivojlanayotganlar bo'lsa 2 qismdagilar esa vaqtni zoye ketqazayotganlar. Bu ketishda inson reallikdan hayoliy olamga sho'ng'ib ketadi. Jamiyatdagi o'rnini yo'qotadi va manqurtga aylanib doimiy stressda bo'ladi. Bunday holatlarga tushmaslik uchun ham ijtimoiy tarmoqlardan birozga chekinib kitoblar bilan do'st tutinib o'zini rivojlantirishga vaqtini sarflashi kerak. Asosan kitob o'qiydiganlarda muloqot ko'nikmasi yaxshi rivojlangan bo'ladi. Diqqatni jamlash qobiliyati yaxshilanib fikrlarini aniq yetkaza oladi. Aqliy salomatlikni yaxshilashda va boshqalarni tushunish qobiliyatini shakllantirish uchun ham davomiy kitob o'qing.

Boshqalar uchun ham manfaatli bo'ladigan va mening hayotimni o'zgartira olgan kitoblarimdan ulashsam : "Ilm olish sirlari", "Ulamolar nazdida vaqtning qadri". Hozirgi yoshlar uchun juda manfaatli kitoblardan.Masalan ilm olish sirlarida nimalar berilgan:

-Ilm olishda parhez va taqvo haqida ;

-Ustoz va sherik tanlash va bu ishda mustahkam bo'lish ;

-Darsni boshlash miqdori va tartiblari to'g'risida va boshqa ko'plab ma'lumotlarni o'qishingiz mumkin.Mazkur asar ilm olish istagida bo'lgan har bir kishiga dasturamal bo'lib xizmat qiladi.

Kitob ruhiyat davolovchisidir. O'qib izlanib borar ekanmiz ongimiz kengayadi, aqlimiz teranlashib zehnimiz kuchayadi.Zero kitob yaxshilikka boshlab yomonlikdan qaytaradigan eng yaxshi nasihatgo'ydir. Ilm olish jarayonida yomon odatlar qolib qalbni yaxshi sifatlar egallaydi. Bir soatgina ilm o'rganish bir kechalik ibodatdan yaxshidir deyilgan. Kitob o'qish orqali boshqariladigan insondan boshqaruvchi insonga aylanasz. Doimiy ravishda mutolaada bo'lish chet tillarini o'rganishda, yangi so'zlarni oson tushunishga va yodda saqlab qolishda yordam beradi.Psixologlar birgalikda kitob o'qish jarayonida ota onalar va bolalar o'rtasida o'ziga xos munosabat o'rnatiladi deb hisoblashadi. Ularning aytishicha bunday munosabat birgalikda televizor ko'rganda aslo paydo bo'lmasligini ta'kidlashgan.O'qish tasavvurni oshiradi. Biz o'zimizga notanish bo'lgan joylar haqida o'qiganimizda idrokimiz tasavvurimiz ishga tushib tasavvurlarni miyamizda yarata boshlaydi va shu orqali xotiramiz mustahkamlanib boradi. Idrokimizning tasavvur qilish va yaratuvchanligi kitob o'qish orqali mustahkamlanadi. Inson o'zi bilmagan holda ilhomlanib o'qishi, yangi va o'zgacha fikrlar kelishiga turtki bo'ladi.Milliarderlar kitob o'qish orqali rivojlanishdan to'xtab qolmaydi. Bunga misol qilib Bill Geytsni aytishimiz mumkun. U yiliga 50 ga yaqin kitob o'qib tugatadi. Bu degani har hafta bir kitob.

Faqat kattalar emas yosh bolalarga ham kitobni sevdirib borishimiz kerak. Ota Onalar doimiy mutolaada bo'lsa farzand ham uyida ko'rganini qiladi.

Bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishning bir nechta omillari :

-Yaxshi ko'rgan kitoblarini ular bilan birgalikda o'qing.

-Tez-tez kutubxonalar va kitob do'konlariga olib borishni odat qiling.

- Boshqa ishlaridan ko'ra, kitob o'qigani uchun ko'proq rag'batlantiring.

- Kitob bolangizning bor e'tiborini jalb etib, hatto uyqu vaqtida ham o'qiyotgan bo'lsa, bunga qo'yib bering.

- O'qigan kitobi haqida suhbatlashing. Kitobga aloqador savollar bering.  
- Kitob o'qish uchun sharoit hozirlang. O'qish burchagi yoxud maxsus xona ularda kitob o'qish odatini shakllantiradi.

- Kitob o'qishda namuna bo'ling. Sizning kitob o'qiganingizni ko'rmagan bolada bu fazilat shakllanishi juda mushkul.

Zero farzandlarimiz bizning bergan tarbiyamiz orqali ertaga jamiyatda o'z o'rnini topadi. Ilmni birgalikda oila bilan o'rganishimiz kerak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mutolaa haqida fikr bildirib, jumladan, shunday degandi: "... hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yana-da oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi".

Yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rne bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi.

Kitob sotib olib yo'qotgan pulingizga achinmang , kitob o'qimay yo'qotgan vaqtingizga achining. Jamiyatda kitobxonlik darajasini rivojlantirsak, davlatimiz ham rivojlanadi!

Amerikada umumiy aholining 73% foizi kitobxon, Xitoyda esa bu ko'rsatkich 70% foizni tashkil qiladi.

Kuchli 10talikda eng pastki o'rinlarda Janubiy Koreyada 37%, Turkiya 39%, Germaniya 50%, va hattoki Rossiyada 53% aholi kitobxon hisoblanadi.

Kitob o'qiydigan insonning fahmlashi kitob o'qimaydiganga nisbatan 60% kuchliroqdir.

"Dunyodagi eng buyuk 100 ta ixtirodan bittasi – kitob.

Bill Geyts uchrashuvlarida muvaffaqiyatli kompaniyasini yaratishda unga o'qish va o'rganish katta yordam berganini aytib o'tadi. Kitob faqat matn emas, balki buyuk najotkor kuchdir.

Suriyaning sobiq muftiysi fazilatli shayx Ahmad Kuftaru juda ko'p kitob o'qir edi. Qayerga borsa, qo'lida kitob bo'lar, bo'sh vaqt topdi deguncha kitob o'qishga kirishar edi.

Birov bilan va'dasi yoki uchrashuvi bo'lmasa, ketma-ket o'n ikki soatlab kitob o'qir, charchoqni bilmas edi. Doimo shunday der edi:

"Peshqadam bo'lish tomon harakat qilayotgan aqlning kaliti kitob o'qishdir. Xalqlar va millatlarning uyg'onish siri kitobdir!"

Insonni tishlaydigan kitoblar bor. O'qiyotgan narsalaring boshingga bir musht tushurib seni uyg'otmayotgan bo'lsa foydasizdir.

Vaqt oliy hakam. Vaqt bizni emas biz vaqtni boshqarib bahonalarni chetga surib kunimizni rejalashtirib kitob o'qishni boshlashimiz va boshqalarni safimizga qo'shish uchun o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Chunki ilm - moldan yaxshiroq. Molni siz qo'riqlaysiz, ilm esa sizni. Kitob o'qib shuni anglab yetdimki, har o'qiganim sari qanchalik bilimsiz ekanligimizni bildim Kelajagimiz yaxshi bo'lishi uchun bizdan keyingi farzandlarimizga munosib ona bo'lib ta'lim tarbiyani to'g'ri bera olishimiz uchun ham ko'p kitob o'qishimizni anglab yetdim. Mutolaa jarayonida o'zingizni qaytadan kashf qilasiz va ruhan dam olasiz. Ko'proq vaqtingizni kitob o'qishga sarflab o'zingizni tarbiyalang. Fursat borida Ilm o'rgan !

Ilm kerak bo'lganda fursat bo'lmasligi mumkin. Kitoblar bilan ko'proq gaplashing, ilmni do'st tuting va ma'rifatga oshno bo'ling.